



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI


ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O'RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026



UMMONDAN DURLAR PEARLS FROM THE OCEAN

Ziyodaxon Teshaboyeva

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori,
filologiya fanlari doktori

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./FVMO6208](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./FVMO6208)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning adabiy merosi, xususan, “Boburnoma” asarining jahon ilm-fani va adabiyotidagi o‘rni tahlil qilinadi. Asarning xorijiy olimlar tomonidan o‘rganilishi hamda uning ta‘sirida yaratilgan ilmiy va badiiy tadqiqotlar ko‘rib chiqiladi. S. Beveridge, W. Thackston va Annemarie Schimmel tarjimalari qiyosiy jihatdan tahlil qilinib, Boburning Tug‘roda bitilgan ruboiysining tarjima strategiyalari ochib beriladi. Aslyatdagi muhim leksik birliklar — “Islom”, “kuffor”, “shahid”, “g‘oziy” kabi tushunchalarning tarjimada ifodalanish darajasi hamda mazmun adekvatligi masalasi yoritiladi. Shuningdek, maqolada Bobur merosining qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik yo‘nalishlari uchun muhim manba ekani asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *Boburnoma, Bobur merosi, ruboiy, tarjima strategiyasi, mazmun adekvatligi, qiyosiy tahlil, tarjimashunoslik.*

Annotation. *This article analyzes the literary heritage of Zahiriddin Muhammad Babur, with particular focus on the significance of the Baburnama in world scholarship and literature. It examines studies and creative works produced under the influence of Babur’s legacy by foreign scholars. The translations of Babur’s rubai written in Tug‘ro by S. Beveridge, W. Thackston, and Annemarie Schimmel are comparatively analyzed, highlighting their translation strategies and approaches. Special attention is given to the rendering of key lexical units such as “Islam,” “infidel,” “martyr,” and “ghazi,” as well as to the issue of semantic adequacy in translation. The article also emphasizes the importance of Babur’s heritage for comparative literature, contrastive linguistics, and translation studies.*

Keywords: *Baburnama, Babur’s legacy, rubai, translation strategy, semantic adequacy, comparative analysis, translation studies.*

Zahiriddin Muhammad Bobur merosi doimiy tarzda o‘rganiladigan ganjina asardir. Uni bejizga ummon deb atamadik. Uning ta‘sirida yozilgan, yaratilgan asarlarning sanab, sanog‘iga yetolmaymiz. O‘zbek tilshunoslik va adabiyotshunosligida hozirgi kunga qadar tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan va o‘rganilmoqda. Uning butun dunyoga mahhur “Boburnoma”si ilm-fan uchun ummon desak xato qilmagan bo‘lamiz. Asar haqida hamisha olimlarimiz

tomonidan iliq munosabatlar bildiriladi. Shunday mulohazalar bilan navbatdagi izlanishlarimizni bevosita asar tarjimasidan ta'sirlanib yozilgan xorijiy asarlarga qaratamiz.

“Boburnoma” turfa asarlar yaratilishi uchun manba bo'lib xizmat qilganki, mulohazamiz avvalida Annamariya Brigitta Shimmel ismini yodga olish o'rinlidir. Annamariya Brigitta Shimmel olmon islomshunosi va sharqshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor. U Islom dini va sharq so'fizmining Yevropadagi eng yetuk mutaxassislardan biridir. Amerika Hindiston, Yevropa va Yaqin Sharq mamlakatlaridagi olimlar Shimmel xonimni juda yaxshi biladilar. Uning asarlariga hurmat bilan qaraydilar va ko'p hollarda A.Shimmel umuman Islom diniga taalluqli mavzularda 100dan ortiq asarlar yaratgani ilm ahliga ma'lum [Yo'ldosh Parda tarjimasi, 1999: 174]. Annamariya Brigitta Shimmel “Boburnoma”ning ingliz tarjimoni, Kembrij universiteti professori V.Tekstonning ham ustozidir.

Yo'ldosh Parda tomonidan olmon tilidan o'zbek tiliga o'girilgan Shimmelning “Jonon mening jonimda” asari barchaga tanish bo'lib, ushbu asar tasavvuf ilmida ayollarni ulug'lovchi, Islom ta'limotida ayollarning o'rni muallif tomonidan yoritiladi. Aslida inglizcha “Lady is my soul” (Ruhim ayol) deb nomlangan ushbu asar sarlavhasini jozibadorlikni ta'minlagan holda Yo'ldosh Parda tomonidan “Jonon mening jonimda” deb uzatiladi.

Annamariya Shimmelning ushbu asari haqiqatam ham jozibaga boy asar. U usbu asarini yozgunga qadar Bobur merosidan ta'sirlangani sezilib turadi. Ayniqsa uning internet tarmoqlarining Amazon kutubxonasi manzilida besh yulduzli kitoblar qatorida turgan “The Great Mughals” (“Buyuk Mo'g'ullar”, afsuski, Yevropa boburiylarni mo'g'ullar nomi ostida taniydilar) nomli asari tahsinga sazavordir. Unda temuriylar xonadonidan tortib, boburiylar merosi, boburiylar hayot tarzi, kiyim kechagi, taqinchoqlar, tabiyat manzarasi, Bobur avlodlari, boburiylar davri muhiti tasvirlanadi va albatta illyustratsiyalarga boy, asliy manbalar, sur'atlar, tasvirlar, London muzeyida saqlanayotgan meroslar ham jamlangan.

Ushbu asar ko'rgazmaliligi o'ziga xos bolib, nafaqat tasvirlar, qolaversa Zahiriddin Bobur sherlaridan parchalar, Humoyun, Komron, Gulbadan ijodi haqida ham toxtaladi. Eng qizig'i shundaki Boburning g'ozini bolgan davrida tug'roda bitilgan ruboyisining eng yaxshi tarjimasi aynan Shimmelning ushbu kitobida aks etganini ko'ramiz. Ushbu kitobdagi eng yaxshi tarjima tahliliga yetgunga qadar Bobur ruboiysini tahlil qilib, tarjimalar ichidagi jihatlarni ko'rib chiqamiz. Zahiriddin Bobur shunday yozadi:

Bu fathdin so'ngra “tug'ro”da “g'ozini” bitildi. Fathnomada tug'roning ostida bu ruboiyni bitidim;

*Islom uchun ovorai yozi bo'ldum,
Kufforu hunud harbsozi bo'ldum,
Jazm aylab erdim o'zni shahid o'lmoqqa*

Al-minnatu lillahki, g'ozi bo'ldim.

[Boburnoma, 2008: 229]

Ushbu ruboiyni bosqichma-bosqich olib borilgan J.Leyden–V.Erskin (1826), S.Beverij (1921), V.Tekston (1996) va A.Shimmelning Kurin Atvud tomonidan (2004) inglizcha tarjimalarida quyidagicha beriladi:

For love of the Faith I became a wanderer in the desert,
I became the antagonist of Pagans and Hindus,
I strove to make myself a martyr;–

Thanks be to the Almighty who has made me a Ghazi,
(victorious over the enemies of the Faith.)

[John Leyden, Erskine, 1826: 367]

Bobur ruboiysining birinchi inglizcha tarjimasi quyidagicha –

*Etiqodga bo'lgan muhabbatim uchun cho'llarni darbadar kezzim,
Butparastlar va hindularning dushmani boldim,
O'zimni shahid etishga intildim;*

*Meni g'oziy qilgan Qodir Egamga shukurlar bo'lsin, (adolat dushmanlari
ustidan g'alaba qozondim).*

Ushbu J.Leyden va V.Erskin tarjimasida asliyat matni *Islom uchun ovorai yozi bo'ldum* – *For love of the Faith*, ya'ni *Etiqodga bo'lgan muhabbatim uchun* tarzida o'zbek tili strukturasi moslashtirilgan va asliyat mazmuniga tenglashtirishda birinchi qatorning davomi va mazmuni to'liq tiklash uchun *I became a wanderer in the desert* – *cho'llarni darbadar kezzim* gapning mazmunini to'ldirish (kompensatsiya) orqali tiklanadi. *Islom uchun ovorai yozi bo'ldum* – Islom dini uchun ovora, sarson sargardon bo'lmoq, ma'nosida ingliz tilida *cho'llarni darbadar kezzim* jumalari orqali asliyat mazmuni tiklanganini ko'ramiz.

Kufforu hunud harbsozi bo'ldum ruboiyning ikkinchi qatori inglizchada *I became the antagonist of Pagans and Hindus*, ozbekchada *Butparastlar va hindularning dushmani boldim* tarjimaning kalka, yani so'zma-so'z usuli orqali o'giriladi.

Jazm aylab erdim o'zni shahid o'lmoqqa ruboiyning uchinchi qatori esa *I strove to make myself a martyr* – *O'zimni shahid etishga intildim*, ya'ni bu yerda garchi *intildim* deb berilsa-da, inglizchada qattiq harakat qilish, urinish, davom etish mazmuniga ega va shahidlik ma'noni kuchaytirishda inglizcha *strove* leksik birligini qo'llangan.

Nihoyat ruboiyning to'rtinchi qatori *Al-minnatu lillahki, g'ozi bo'ldim.* – *Thanks be to the Almighty who has made me a Ghazi, (victorious over the enemies of the Faith.)* ozbekchada *Meni g'oziy qilgan Qodir Egamga shukurlar bo'lsin, (adolat dushmanlari ustidan g'alaba qozondim)* tarzida aks etgan. Zahiriddin Bobur tomonidan bayon etilgan ruboiyning beshta leksik birlik: 1. *Al*; 2. *Minnatu*; 3. *lillahki*; 4. *g'ozi*; 5. *bo'ldimning* ma'nolarini tiklashda uzatilgan.

Mulohazalardan korinadiki, asliyat matnini tarjimada aynan aks ettirish murakkab vazifa. Tarjimonlar yuqorida keltirilgan beshta leksik birlikdan iborat gapni yettita: *Al-minnatu lillahki, g'ozu bo 'ldimni Thanks be to the Almighty who has made me a Ghazi, (victorious over the enemies of the Fairth.) – Meni g'oziy qilgan Qodir Egamga shukurlar bo'lsin, (adolat dushmanlari ustidan g'alaba qozondim) deya 1.Meni; 2. g'oziy; 3. qilgan; 4. Qodir; 5. Egamga; 6. shukurlar; 7. bo'lsin aks ettirishgan. Matn oxirida adolat dushmanlari ustidan g'alaba qozondim jumlasini qoshish orqali tarjima aniqligi (konkretizatsiya) va mazmun kuchaytirish uchun qoshilgan. Asliyatdagi ruboiyning Beverij tomonidan qilingan tarjimasida quyidagicha beriladi:*

For Islam's sake, I wandered in the wilds,
Prepared for war with pagans and Hindus,
Resolved myself to meet the martyr's death.
Thanks be to God! *A ghazi* I became
[Beveridge, 1921:575].

Islom uchun yovvoyi tabiatda kezib yurdim,
Butparastlar va hindular bilan urushga tayyorlanib,
Shahidlik o'limi blan robaro kelishga qaror qildim.
Xudoga shukurki, Men g'oziy bo'ldim.

S.Beverij tarjimasida ham o'ziga xos tarzda o'girilgan bo'lib, ba'zi leksik birliklarning ekvivalentlari orqali almashtirilganini ko'ramiz va to'rtlikning qisqaligiga ham e'tibor qaratganini seziladi. Uning tarjimasida asliyatdagi *ovorai yozi – yovvoyi tabiatda* deb berilsa, *Kufforu hunud harbsozi bo'ldum – Butparastlar va hindular bilan urushga tayyorlanib* tarzida o'giriladi. Biroq, asliyatning kalit so'zlari: *Islom, kuffor, shahid, Al-minnatu lillahki, g'ozu* leksemalari har bir tarjimada to'liq aks etganini ko'ramiz va bu strategiya keying tarjimonlar ishida ham seziladi. Ushbu jihatlarni V.Tekston tarjimasida ham kuzatamiz:

For the sake of Islam I became a wanderer;
I battled infidel and Hindus,
I determined to become a martyr.
Thank God I became holy warrior [Thackston, 1996: 394].

Islom uchun men sarson-sargardon bo'ldim;
Kofirlar va hindular bilan jang qildim.
Shahid bo'lishga qaror qildim,
Xudoga shukurki, men muqaddas jangchi bo'ldim.

For the sake of Islam I became a vagabond,
I fought with Hindus, and with many heathens,

I was ready to die as a martyr,
But thanks be to God! I became a hero of the faith!
[Shimmel, 2004: 25].

Islom uchun men sarson-sargardon bo‘ldim,
Hindular va ko‘plab butparastlar bilan jang qildim,
Shahid bo‘lib o‘lishga ruhan tayyor edim,
Ammo Xudoga shukur! Men din qahramoniga aylandim.

Tarjimalarni solishtirganimizda asliyatdagi ba’zi she’rlarning mazmun adekvatligini ta’minlanganini anyan mana shu kitob orqali qiyoslash mumkinligini angladik. Annamariya Shimmelning ushbu asarini ona tiliga tarjima qilish lozimligini ko‘rsatadi. Biz ushbu maqolada Zahiriddin Boburning Tug‘roda bitilgan ruboiysi tarjimasigagina tahlil etdik. Yana uning asarida tahlil qilinishi lozim bo‘lgan qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik yo‘nalishi uchun talay manbalar mavjud. Ular esa o‘z mualliflarini kutmoqda.

Xorijiy olimlardan Skott Levining “Buyuk ipak yo‘lidagi Hindiston savdo karvoni”, “Markaziy Osiyodagi hind diasporasi va uning savdosi”, “Hindiston va Markaziy Osiyo” kabi asarlari ham nashr qilingan.

Stefan Frederik Deylning “Janubiy Osiyo chegarasidagi islom jamiyati. Malabar xaritasi”, “Sakkiz jannat bog‘i”, “Usmonlilar, Safaviylar va mo‘g‘ullarning musulmon imperiyalari”, “Marokashning apelsin daraxtlari: Ibn Xaldun va jamiyatshunoslik (inson ilmi)”, “Bobur temuriy shahzoda va mu‘g‘ul imperatori” va “Bobur” nomli asarlari ham tahsinga loyiq.

Jon Richards (1938–2007)ning esa “Hindistonning yangi Kembrij tarixida “Mo‘g‘ul imperiyasi” (1993) va “Qo‘shma Shtatlardagi Mo‘g‘ullar imperiyasining yetakchi tarixchilaridan biri” sifatida kitoblarini o‘zbek tiliga tarjima qilish, ajdodlar haqidagi o‘zgacha yondashuvlarni kash etadi. Yana Angliya adibasi Rumer Godennning “Gulbadan” asarining yozilishi va uslubi tadqiqotchilarni turli tarjima usullarini ochishga undaydi. Bu kabi goyalar albatta alohida tadqiqotlarni talab etadi.

Xulosa tarzida aytish mumkinki, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”sini bir ummon deb talqin etilsa, uning ta’sirida yaratilajak har bir asar xoh u xorijiy tilda bo‘lsin, xoh ona tilida bo‘lsin biz ularni UMMONDAN DURLAR deb ayta olamiz.

Adabiyotlar:

1. Beveridge, A. S. The Babur-Nama in English. Emperor of Hindustan Babur. – London, 1921. — 880 p.
2. Dale, S. F. Babur. – Cambridge: Cambridge University Press, 2018. – 242 p.
3. Leyden, J. Memoirs of Zehir-Ed-Din Muhammed Baber: Babur, Emperor of Hindustan. – London, 1826. — 432 p.



4. Richards, J. F. The New Cambridge History of India. The Mughal Empire. – Cambridge University Press, 2005. – 320 p.
5. Schimmel, A. The Empire of the Great Mughals. – London, 2004. – 351 p.
6. Schimmel, A. The Lady is My Soul / tarj. Yo‘ldosh Parda. – Toshkent: Sharq, 1999. – 172 b.
7. Thackston, W. M. The Baburnama. Memoirs of Babur, Prince and Emperor. – New York, 1996. — 554 p.
8. Бобур, Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома. – Тошкент: Шарқ, 2002. –335 б.
9. Бобур, Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома. – Тошкент: Ўқитувчи, 2008. – 287 б.
10. Бобур, Заҳириддин Муҳаммад. Бобур-наме. – Тошкент: Шарқ, 2008. – 242 б.
11. Бобур, Заҳириддин Муҳаммад. Мубайян. – Тошкент: Шарқ, 2014. – 448 б.
12. Рустамхўжаев, Ш. Ш. Бобур ва бобурийлар библиографияси. – Андижон: Andijon nashriyot-matbaa MЧЖ, 2014. – 481 б.
13. Тешабоева З.Қ. “Бобурнома”нинг инглизча таржималаридаги фразеологик бирликларнинг когнитив ва лексикографик тадқиқи: Филол. фан. док. дисс. – Тошкент, 2021.